

## Kasb Hunarga O'Qitishda Uning Sifatini Va O'Quvchi Faolligini Oshirish

A. J. Kurbanov

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Jamiyatimizdagi qayta qurish yoshlar zimmasiga har sohada faol ishtirok etishlari uchun keng yo'l ochib berdi.

**Kalit so'zlar:** pedagog kadrlar, ijtimoiy hamkorlik, metodlar, Sun'iy intellekt, pedagogik mahoratni, sun'iy intellekt.

O'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'limda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar mazmuni jamiyatning inqilobiy yangilanishi bilan chambarchas bog'liq. Mazkur o'zgarishlar o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish jarayonini sifat jihatdan takomillashtirishni talab qilayotgan iqtisodiy, siyosiy huquqiy islohatlarni taqazo etmoqda. Jamiyatimizdagi qayta qurish yoshlar zimmasiga har sohada faol ishtirok etishlari uchun keng yo'l ochib berdi. Shu bois ta'limi xodimlari oldiga yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirish, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, o'quvchi-talabalar faoliyatini faollashtirish vazifasini qo'ydi.

Birinchi, yangi avlodni barkamol tarbiyalashda o'quv rejalari va dasturlari mazmuniga o'zgarishlar kiritish.

Ikkinchi, yangi darsliklarni yaratishda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish va joriy etishni ta'minlash.

Uchinchi, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlashda ta'limni rivojlantirish zarur.

O'quv rejani o'zgartirishlar bo'yicha barcha qarorlar kollej va qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari, oliy ta'lim muassasalari bilan birgalikda kelishilgan holda qabul qilinishiga alohida e'tibor berildi. Zarur hollarda kiritilgan o'zgartirishlar tajriba-sinovdan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng, o'rta maxsus, professional ta'limi (O'MKHT) markazi tasdig'idan o'tkazib amalda qo'llash uchun tatbiq etilishi mumkin. Demak, ijtimoiy hamkorlik doirasida o'quv rejasi, maxsus fanlar, o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti dasturlari tahliliy ko'rib chiqish asosida qayta ishlab chiqishi kerak.[4]

Shundan kelib chiqib, maqola kollej o'quvchilarining moliya bozori fanidan ijodiy faolligini oshirishga qaratilgan bo'lib, Davlat ta'lim standarti rejasida belgilangandan tashqari va mahalliy joylarda kollej o'quvchilari tadbiq qila oladigan ishchi farazlar haqida fikrlar keltirilgan. Umuman olganda bo'lajak mutaxassislariga birjalar, ular faoliyatining asosiy tamoyillari, birja faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari, birjalarni tashkil qilish va ular faoliyatini yuritish, birja savdosini amalga oshirish bo'yicha bilim va dastlabki ko'nikmalar berish asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Shuning uchun moliya bozorlari fanidan har bir mavzu o'tilganda hayotga bog'lab dars mashg'ulotlarining olib borilishi kollej o'quvchilarining fanga bo'lgan qiziqishlarini va ijodiy faolliklarini oshiradi. Bu borada umumiy o'rta ta'lim maktabida dastlabki iqtisodiy fanlardan o'quvchilarga nazariy bilim berish jarayonida ularni bozor iqtisodini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish, fanni o'qitishni hayot bilan bog'lash asosida ongli kasb tanlashga tayyorlashdan iborat.

Sun'iy intellekt texnologiyalari, talabalarning o'quv natijalarini avtomatik ravishda baholaydi va ta'lim tizimlarining nafaqat ma'lumotlar bilan to'plangan statistik ma'lumotlariga, balki har bir talaba o'zining o'zgarishlariga asoslangan kengaytirilgan analizlar taqdim etish imkoniyatini beradi. Bu, o'qituvchilarga har bir talabaning rivojlanishi bo'yicha shaxsiy yondashuvni kuchi bilan baho berish imkonini yaratadi[5]

O'quvchilarga qimmatli qog'ozlar turlari va qimmatli qog'ozlar bozori xaqida umumiy ma'lumotlarni, unda mehnatga bo'lgan muhabbatni shakllantirib borish, nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarini hayotga tadbiiq eta olish hamda moliya bozorlariga ta'rif bera olish o'quvchi qobiliyatini faollashtirish kasbga yo'naltirishning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu vazifani ijobiy hal etish o'quvchini faollashtirishda katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarni amaliy ishlarni bajarishga oid topshiriqlarga erta tayyorlab borishda mustaqil izlanuvchanlik faoliyati shakllanadi. Yuqorida bildirilgan fikrlarimiz o'quvchilarning fanni o'zlashtirishda faolligini oshirishning dolzarbligini bildirib, mehnat faoliyatiga tayyorlash, ularning kasbga bo'lgan muhabbatini shakllantirishga, nazariy bilim, amaliy ko'nikmalarni amaliyotga tadbiiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarda fanning sifati va o'zlashtirish faolligini oshirishning quyidagi ishchi farazlari bajarilishi maqsadga muvofiq deb hisobladik:

- o'quvchi faoliyatini faollashtirishning psixologik – pedagogik asoslariga yaxshi bilishga;
- o'quvchi faoliyatini faollashtirish;
- amaliy ishlarni bajarishga oid topshiriqlarga erta tayyorlab borishda mustaqil izlanuvchanlik faoliyati ishlarining rejasini tuzishga e'tibor berilganda o'quvchi faoliyatini faollashtirishga erishishimiz mumkin.

Har bir kasbiy soha mazmuni (misol uchun, oziq-ovqat, yengil sanoat, qurilish va h.k.) uning kelajakdagi rivojlanish yo'nalishi bo'yicha aniqlanishi kerak. Manfaaddorlarning takliflari professional ta'lim vazifalari va mazmunini ishlab chiqishda muhim hisoblanadi.[4]

1. Abdusalomovich, A. O. (2024). Dasturlashtirilgan ta'lim vositalaridan foydalanib texnologiya darslarida talabalarning didaktik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 4(2), 317-319.
2. Абдусаломов, О. А. (2021). Педагогик дастурий vositalaridan texnologiya fani mashg'ulotlarida foydalanishning ahamiyati: DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.42.94.078> Abdusalomov Oxunjon Abdusalomovich, Termiz davlat universiteti magistranti. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (1-Махсус сон), 39-41.
3. Eshmurzaevich Q. B. O'quvchilarning «texnologiya» fanida hunarmandchilikka oid maxsus kompetensiyalarini raqamli ta'lim muhitda rivojlantirishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari // *Наука и технологии*. – 2023. – Т. 1. – №. 2.
4. Panjiyevich, XI (2023). PROFESSIONAL TA'LIMDA IJTIMOIIY HAMKORLIK DOIRASIDA TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH USULLARI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 3 (4), 173-176.
5. Panjiyevich, XI (2024). Sun'iy intellektning o'zbekistonda rivojlanishi va professional ta'limda qo'llanilishi. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 4 (2), 257-259
6. Sherali O'g'li, A. J. (2022). Modern Methods of Forecasting Emergency Situations. *Eurasian Research Bulletin*, 15, 85-88.